



O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

O'zbek tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish – samarali ta'lim garovi

G. Kamoljonova Jizzax viloyati Pedagogik mahorat
markazi o'zbek tili fani metodisti

Zamonaviy metodning asosiy g'oyasi nima ?



O'quvchini ta'lim jarayonining markaziga qo'yish va uni mustaqil, faol, fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishdir.

Zamonaviy metod-o'quvchini o'ylashga, izlanishga va bilimni hayotda qo'llashga o'rgatadi.

INTERFAOL METODLAR NIMA VA NEGA ULAR MUHIM?

Interfaol metodlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida ikki tomonlama faol muloqotni ta'minlaydi, bu o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan dars usullari bo'lib, ularda o'quvchilar bilimni passiv qabul qilmasdan, faol ishtirok etadi, muammolarni hal qiladi, fikr almashadi va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

- O'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.
- Darsni qiziqarli va samarali qiladi.
- Amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.



Guruh ishlari

Hamkorlik



Rolli o'yinlar

**kommunikatsiya ko'nikmalarini
mustahkamlaydi.**




Muhokamalar

**Bilimning uzoq muddatli
saqlanishini ta'minlaydi.**

AN'ANAVIY VA INTERFAOL METODLAR FARQI

Ta'lim samaradorligini oshirish uchun ushbu ikki yondashuv o'rtasidagi asosiy farqlarni tushunish lozim.



An'anaviy metodlar

Ko'proq ma'ruza va passiv eshitishga asoslangan.
O'qituvchi asosiy ma'lumot yetkazuvchi hisoblanadi.



Interfaol metodlar

O'quvchilarni faol ishtirokchi bo'ladi, mustaqil fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.



Natija: interfaol yondashuv o'rganish samaradorligini 30-50 % ga oshiradi.

INTERFAOL METODLARNING ASOSIY TURLARI

Guruh ishlari

Muammolarni birgalikda yechish- Bu metodda o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linib, berilgan muammoni hamkorlikda tahlil qiladi, fikr almashadi va umumiy yechimga keladi. Ushbu jarayon muloqot, tanqidiy fikrlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Muammo munozarasi

Tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish- interfaol metod bo'lib, o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi. Ushbu metodda muammo qo'yiladi, o'quvchilar o'z fikrini asoslab aytadi, bahs-munozara orqali turli nuqtayi nazarlar tahlil qilinadi va xulosa chiqariladi.



Rolli o'yinlar

Haqiqiy vaziyatlarni takrorlash- interfaol metod bo'lib, unda o'quvchilar haqiqiy hayotiy vaziyatlarni rollar orqali takrorlaydi, muloqot, muammo yechish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy texnologiya

Interaktiv taxta va platformalar- dars jarayonida raqamli vositalar orqali o'quvchilarning faolligini oshiradigan, ko'rgazmalilik, hamkorlik va tezkor fikr almashuvni ta'minlaydigan o'qitish usullaridir.




DIQQATNI BOSHQARISH MUMKIN!

- Diqqat tug'ma emas-rivojlantiriladigan ko'nikma

- To'g'ri metodlar o'quvchida fokusni oshiradi



- Har qanday sharoitda diqqatni tiklash usullari bor



“R a k e t a” metodi

Maqsad:

O‘quvchilar diqqatini tezda
jamlab olish



- 1 10 dan boshlab teskari sanoq boshlanadi
- 2 10 sonidan 7 soniga kelguncha o‘quvchilar o‘rnidan turadi
- 3 7 sonidan 4 soniga kelguncha o‘quvchilar o‘tirib olishadi
- 4 4 sonidan 0 gacha o‘quvchilar ko‘zlarini yumgan holda chuqur nafas olib chiqarib yuborishadi

MANTIQUIY SAVOL BERAMIZ!

- Nega ba'zan odam “ha” deyishni istamaydi?



- Nega odamlar qisqa yo'lni izlaydi?



- Kim g'alaba qozonadi, kuchlimi yoki donomi?



- Nima uchun yugurganimizda yuragimiz tez uradi?



“TO‘TIQUSH” metodi

MAQSAD: O‘quvchilar diqqatini tezda jamlash

QANDAY ISHLAYDI?




-E‘tibor menda – E‘tiborimiz sizda



-Ko‘zlar menda - Ko‘zlarimiz sizda





- Quloqlar menda - Quloqlarimiz sizda



QIZIQARLI REBUS METODI

Qiziqarli rebus metodi — o'quvchilarda zerikish alomatlari sezilganda qo'llash uchun qulay va samarali interfaol metod hisoblanadi. Ushbu metod orqali o'quvchilarning diqqati qayta jamlanadi, mantiqiy fikrlashi faollashadi hamda berilgan topshiriqlar asosida qiziqarli iboralarni mustaqil aniqlash ko'nikmasi shakllanadi. Rebuslardan foydalanish ta'lim jarayonini jonlantiradi, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va bilimlarni mustahkamlashda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.





Ko'p




+



+






+



+






+




ga

**BACK**










BIDIR-BIDIR
BIDIR-BIDIR







+




+






+









+






+







+



XULOSA



Kelajak ta'limi — interfaol ta'lim!




Interfaol metodlar – o'zbek tilini samarali va qiziqarli o'rgatishning asosiy kalitidir.



Bu yondashuv har bir o'qituvchi va o'quvchi uchun yangi innovatsion imkoniyatlar eshigini ochadi.



Zamonaviy ta'lim tizimida o'zbek tilini o'rgatish nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda muloqot va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni ham ko'zda tutadi.



Interfaol metodlar bu maqsadga erishishning eng samarali yo'lidir.

E'tiboringiz uchun rahmat!

